



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Nutq uslublarning asosiy ahamiyati

Majidova Shahnoza Komilovna

TerDPI katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Hushboqova Zulayho Sobirjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq uslublari, Nutq uslublarning tilda qo'llanishi, adabiy nutq uchun xos xususiyatlari uchun mos xususiyatlari bilan ajralib turadigan ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, rasmiy-idoraviy uslubda, tilning vazifaviy uslublari, demak nutq uslublari, mukammal rivojlangan.

Kirish: Til inson hayotida g'oya almashish, aloqa-aralashuvning eng muhim vositasi sanaladi. U yozma va og'zaki nutq davomida o'z ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi.

Nutqning adabiy va shevalarga xos ko'rinishlari mavjud.

Adabiy nutq so'z san'atkorlari yozuvchilar, shoirlar, olimlar yordamidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchani talaffuzi, imlosi, foydalanilishi, ma'nolari aniq chegaralar bilan belgilangan. Ushbu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish faoliyatlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi.

Asosiy qism: Adabiy nutqning aniq bir sohadagi muloqot uchun belgilangan, bir qator o'ziga mos xususiyatlari bilan ajralib turadigan ko'rinishlari - uslublari mavjud. Bular quyidagilardan iborat: 1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub; 4) ilmiy uslub; 5) rasmiy-idoraviy uslub.

So'zlashuv uslubi insonlarning oilada, ko'cha-ko'yda g'oya almashinuvi vaqtida foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha dialog shaklida bo'ladi.

Publitsistik uslub axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga xoslangan ommaviy axborot vositalari (radio-televideaniye, gazeta, jurnallar) uslubidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga mos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng foydalanilishga xos bo'lib, hamma ilmiy asarlar, shuningdek, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror



qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

Shuni ta'kidlash joziki, nutq uslublari tizimini tashkil etuvchi vositalarning bir-

biri bilan o'zaro aloqasi ayni shu nutq uslubining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy vazifasi-tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat. Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. Biroq nutq uslubiga xos jihatlar boshqa bir uslub tarkibida ham uchrashi mumkin.

Masalan, ilmiy terminlar rasmiy, publitsistik va so'zlashuv kabi uslublarda ishlatilishi mumkin. Shunga ko'ra, nutq uslubi — ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan tizimidan iborat deyish mumkin.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so'zlar deyiladi.

Tovush, urg'u, bo'g'in, undalma, morfema, omonim, sinonim, uslubiyat kabi qator so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Sababi shu so'zlar asosan tilshunoslik fani doirasida foydalaniladi.

Osmon, xalq, bayram, o'quvchi, dars, tushlik, salomatlik, odam kabi so'zlar barcha nutq uslublari doirasida birdek qo'llanish imkoniga egaligi tufayli uslubiy betaraf so'zlar qatoriga kiradi.

Nutq uslublarning har biri alohida-alohida tizimni tashkil qiladi. Bu jihat aloqa aralashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To'g'ri, tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining har biri ham alohida bir tizimni, tilning o'zi esa yaxlit holda butun bir tizimni tashkil etadi. Tilning

vazifaviy uslublari mana shu fonetik, leksik va grammatik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra uyushishi tufayli vujudga keladi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq ekan. Shu bois ular vazifaviy uslublar deb yuritiladi.

Mukammal rivojlangan, talab darajasidagi nutq texnika, o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng asosiy tomonidir. Jonli, tovushli nutq va uning hamma unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi.

Xulosa. Nutq uslublari adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi turli sohalarga moslashgan, o'ziga xos ifoda vositalari va qoidalar tizimi hisoblanadi. Har bir



nutq uslubi – soʻzlashuv, publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy-idoraviy – alohida tizim boʻlib, oʻzining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, uslublar bir-biri bilan oʻzaro aloqada boʻlib, ayrim vositalar bir nechta uslubda qoʻllanilishi mumkin. Nutq uslublari insonning fikrini toʻgʻri, aniq va taʼsirchan ifodalashga xizmat qiladi, tilning ijtimoiy vazifalarini amalga oshiradi va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq texnikasi va ovoz bilan bogʻliq koʻnikmalar esa mukammal, jonli va tushunarli ifodani taʼminlashning ajralmas qismidir. Shu sababli, nutq uslublari toʻgʻri bilish va qoʻllash har bir shaxsning kommunikativ kompetensiyasi va til madaniyatini rivojlantirishida muhim rol oʻynaydi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Gʻ. Oʻzbek adabiy tili va uslublari. Toshkent, 2003.
2. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. Toshkent 1972
3. Karimov S. Til va nutq uslublari. Toshkent, 2012.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. Toshkent, 2005.
5. M.J. Saidova. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). V-5. 254-261
6. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -Toshkent, 1982
7. Rashidov O. Oʻzbek tili fonetikasi va leksikasi. Toshkent, 2008.
8. Sultonova F. Nutq madaniyati. Toshkent, 2015.